


Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020- yil yanvar-iyun

2020- yil yanvar-iyun oylarida 3576,7 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 54,8 % i, yoki 1961,5 mlrd. so'mni jalb etilgan mablag'lari hisobidan, shuningdek 45,2 %, yoki 1615,2 mlrd. so'mni - korxona, tashkilotlar va axolining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar 2020- yil yanvar-iyun

Hisobot davrida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 860,4 mlrd. so'm investitsion mablag' yoki jami investitsiyalarning 24,1 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga qaraganda deyarli 42,4 % ga kamaydi. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2716,3 mlrd. so'm o'zlashtirildi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 75,9 % ni tashkil etdi, 26,0 foizli punktga kamaydi.


Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 1347,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilindi, yoki jami investitsiyalarning 37,7 foizi o'zlashtirildi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 114,0 foizga oshdi. Aholining mablag'lari hisobidan 267,8 mlrd. so'm investitsiyalar, ulushi 7,5 foizni tashkil etdi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 35,8 foizga kamaydi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 468,0 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi, 2019- yilning shu davriga nisbatan 46,8 foizga kamaygan va jami investitsiyalarning 13,1 % ini tashkil etdi.


Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 584,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 16,3 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan, 68,4 foizga kamaygan, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 516,3 mlrd. so'm (ulushi 14,4 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37,5 % ga kamaygan), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan – 49,0 mlrd. so'm va ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, 18,6 foizga kamaygan. Respublika byudjetidan – 296,0 mlrd. so'm (ulushi 8,3 % va 41,0 % ga kamaygan), Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasidan – 47,4 mlrd. so'm (ulushi 1,3 % va 16,8 martaga oshgan).



**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi
2020- yil yanvar-iyun**



**Mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ulushi
(jamiga nisbatan % da)**




Nodavlat
mulkchiligi shakli

2020- yil yanvar-iyun

Davlat
mulkchiligi shakli

2020- yil yanvar-iyun



Hisobot davrida asosiy kapitalga nodavlat mulki asosida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 62,3 foizga kamaydi

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha



asosiy kapitalga investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'ati bank

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	umumiy hajmga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:	3576,7	62,8	100,0
Markazlashtirilgan investitsiyalar	860,4	42,4	24,1
Davlat byudjeti	296,0	41,0	8,3
Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasi	47,4	116,8	1,3
Tiklanish va taraqqiyot fondi	49,0	18,6	1,4
O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	468,0	46,8	13,1
Markazlashtirilmagan investitsiyalar	2716,3	74,0	75,9
Korxona mablag'lari va maxalliy byudjeti	1347,4	114,0	37,7
Tijorat banklari kreditlari va boshqalar qarz mablag'lari	584,8	168,4	16,3
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	516,3	37,5	14,4
Aholi mablag'lari	267,8	35,8	7,5

kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan – 168,4 %, Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan - 116,8 %, bu suv ta'minoti tizimini takomillashtirish dasturlari bilan bog`liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalar, tumanlar kesimida




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
Nukus shahri	715,4	80,1
Amudaryo	106,0	81,8
Beruniy	121,1	32,0
Bo'zatov	12,1	212,3
Qorao'zak	119,9	48,4
Kegeyli	86,6	107,4
Qo'ng'irot	546,9	100,6
Qonliko'l	160,1	109,8
Mo'ynoq	468,1	70,0
Nukus	88,6	48,0
Taxiatosh	342,5	28,8
Taxtako'pir	56,5	154,2
To'rtko'l	202,2	52,8
Xo'jayli	93,9	39,3
Chimboy	67,9	44,1
Shumanoy	121,2	103,5
Ellikqal'a	267,7	90,2

Tumanlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar: Bo`zatov tumanida o'sish sur'ati 212,3 foizga oshdi, bu hisobot davrida chorvachilikni rivojlanishi va ijtimoiyt obyektlar qurilishi bilan bog`liq, shuningdek, yuqori o'sish sur'atlari Taxtako'pir tumanida ham kuzatilmoqda. Bu 154,2 % ni tashkil etdi, ushbu tumanda ishlab chiqarish sanoatiga yangi quvvatlar yaratildi va chorvachilikni rivojlantirishga chet el kreditlari o`zlashtirildi.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tumanlar kesimida o'sish sur'atlari, % da



● 2019- yil yanvar-iyun ● 2020- yil yanvar-iyun




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish montaj ishlariiga 1826,3 mlrd. so'm o'zlashtirildi va jami investitsyaning 51,1 % ni tashkil etdi. Asosiy vositalarga investitsiyalarning mashina va uskunalarni sotib olishga 1547,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan 43,2 %) va boshqa harajatlar – 203,3 mlrd. so'm (5,7 %) o'zlashtirildi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Hisobot davrida asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar bo'lib, hajmi 1847,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va umumiy hajmining 51,7 % ni tashkil etdi. Mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta qurollantirishga 812,2 mlrd. so'm o'zlashtirildi, va umumiy hajmining 22,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, 916,8 mlrd. so'm boshqa sohalarga o'zlashtirildi va ulushi 25,6 % ni tashkil etdi.





• Qishloq, o'rmon va
balig' xo'jaligi 667,5
mlrd. so'm



• Tog`-kon sanoati
725,3 mlrd. so'm



• Qayta ishlash sanoati
690,6 mlrd. so'm



• Elektr ta'minoti, gaz
va bug'langan havo
311,7 mlrd. so'm



• Suv ta'minoti
kanalizatsiya va
chiqindilarni qayta
ishlash 131,9 mlrd.
so'm



• Qurilish
72,9 mlrd. so'm



• Tashish va saqlash
204,6 mlrd. so'm



• Ta'lim
127,9 mlrd. so'm



• Uy-joy qurilishi
236,2 mlrd. so'm



• Boshqa
yo'nalishlarga
408,1 mlrd. so'm




**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar
(ming. so'm)**

	ming. so'm	O'sish sur`ati, %
Qoraqalpog'ston Respublikasi	1878,3	61,8
Nukus shahri	2229,9	78,9
Amudaryo	530,4	80,3
Beruniy	630,9	31,4
Bo'zatov	562,5	211,2
Qorao'zak	2265,9	47,9
Kegeyli	1192,2	106,4
Qo'ng'irot	4197,0	99,4
Qonliko'l	3127,9	108,3
Mo'ynoq	14675,4	68,9
Nukus	1757,7	47,0
Taxiatsosh	4628,6	28,5
Taxtako'pir	1405,7	153,1
To'rtko'l	940,9	51,9
Xo'jayli	763,0	38,8
Chimboy	603,8	43,7
Shumanoy	2152,6	102,4
Ellikqal'a	1676,1	88,5

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori ko'rsatkichi Mo'ynoq tumanida qayd etildi – 14675,4 ming. so'm, hisobot davrida gaz ishlab chiqarishqa o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq. Taxiatsosh tumanida – 4628,6 ming. so'm, bu Taxiatsosh TESda yirik investitsiya loyihasi bilan bog'liq, Qo'ng'irot tumanida aholi jon boshiga - 4197,0 ming so'm, bu tog'-kon sanoati va qayta ishslash sanoati tarmoqlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha tarkibi**

(jamiga nisbatan, % da)



Hisobot davrida faoliyat turlari bo'yicha elektr energiyasi va gaz ta'minotiga 311,7 mlrd. so'm, yoki investitsiyalar umumiy hajmining 8,7 % i sarflandi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Taxiatosh TESda elektr energiyasini ishlab chiqaradigan ikkita yangi qurilmaning qurilishi bilan bog'liq.

Qayta ishlash sanoati faoliyat turiga esa 690,6 mlrd. so'm, yoki investitsiyalar umumiy hajmining 19,3 % i sarflandi. Bu, chet el investitsiya va kreditlari hisobidan, shuningdek boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga 280,8 mlrd. so'm, farmaseptik dori mahsulotlar ishlab chiqarishga 39,2 mlrd. so'm, boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga 81,7 mlrd. so'm o'zlashtirildi.


Qishloq xo'jaligi faoliyati 667,5 mlrd. so'm, ulushi 18,7 %. Bu davlat kafolatidagi chet el kreditlari PF-2325 boyicha suv resurslaridan oqilona foydalanish ushun ekin maydonlarini lazer tekislash ishlarda va Respublikaning ko'plab tumanlarida yangi issiqxonalarini barpo etishga o'zlashtirildi.

Tog'-kon sanoatida 725,3 mlrd. so'm yoki umumiy investitsiyalarning 20,3 foizi o'zlashtirildi, shundan 649,7 mlrd. so'm yoki investitsiyalar umumiy hajmining 18,2 foizi tabiiy gaz qazib olishga (Ustyurt platosidagi gaz quduqlarini barpo etishga) o'zlashtirildi.

Uy-joy qurilishi faoliyat turiga 236,2 mlrd. so'm, yoki investitsiyalar o'zlashtirildi va umumiy hajmining 6,6 foizini tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar (jamiga nisbatan, foizda)



Asosiy kapitalga uzlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 37,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keldi va 20,7 foizi tog'-kon sanoati faoliyat turiga o'zlashtirildi.



***Chet el investitsiya va kreditlarining o'zlashtirilishi, tumanlar
kesimida, mlrd. so'm***

	Jami chet el investitsiya va kreditlari	To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar	O'z.R. kafolatidagi chet el investitsiya va kreditlari	Kafolatlanmagan chet el kreditlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	984,3	110,9	468,0	405,4
Nukus shahri	69,9	17,0	9,0	43,9
Amudaryo	56,2	2,2	35,0	19,0
Beruniy	38,6	0,5	28,0	10,1
Bo'zatov	3,4	-	-	3,4
Qorao`zak	14,5	2,9	-	11,6
Kegeyli	19,9	16,9	-	3,0
Qo'ng'irot	219,9	49,2	-	170,7
Qonliko'l	8,8	2,1	-	6,7
Mo'ynoq	33,2	4,5	-	28,7
Nukus	10,7	4,6	-	6,1
Taxiatosh	222,3	0,9	185,7	35,7
To'rtko'l	8,3	-	-	8,3
Xo'jayli	69,4	1,1	65,0	3,3
Chimboy	7,3	-	-	7,3
Ellikqal'a	8,4	5,8	-	2,6



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o`zlashtirilish bo'yicha Ellikqal'a, Taxiatosh, Qo'ng'irot tumanlari etakchi o'rinni egalladi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmidagi eng katta ulushi Taxiatosh tumanida - 22,6 foiz, bu Taxiatosh TESda elektr energiyasini ishlab chiqaradigan ikkita yangi qurilmaning qurilishi bilan bog'liq, shuningdek bu yerda qizilmiya ildizini qayta ishslash va yangi issiqxonalar barpo etilishi bilan bog'liq. Qo'ng'irot tumani ulushi - 22,3 % ni tashkil etganligi, yangi gaz quduqlarining barpo etilishi bilan bog'liq. Ellikqal'a tumanida - 18,4 %, bu davlat kafolatidagi chet el kreditlari hisobidan PF-2325 asosida suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida ekin maydonlarini lazer tekislash ishlari bilan bogliq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61)222-75-91